

ELEKTRON PULLAR VA ULARNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O‘RNI


M.T.Matchanov

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron pullar va ularning mohiyatini aniqlashga qaratilgan olimlarning fikrlari va konseptual yondoshuvlar yoritilgan. Elektron pullarning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari o‘rganilgan. Muallif tomonidan elektron pullarni talqin qilishning konseptual yondashuvlarida klassik olimlar va tadqiqotchilarning turli xil qarashlari o‘rganilgan va tahlil qilingan. Iqtisodiyotni axborotlashtirish va elektron pullarning kirib kelishi, elektron pullarga bo‘lgan turlicha talqin shular jumlasidandir.

Kalit so‘zlar: elektron pullar, axborot, pul, naqd pul, maxsulot, texnologiya.

Dunyo bo‘ylab har kuni ko‘plab axborotlar aylanadi. Buning sababi internet va mobil telefonlarni doimiy ravishda o‘sib borayotgan texnik imkoniyatlari, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinishi va internet tezligining yildan-yilga o‘sishi katta yordam beradi. Jahon iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi sharoitida alohida davlatlar iqtisodiyotining integratsiyasi va to‘lov tizimlarining rivojlanishi, xususan, naqdsiz to‘lov shakllari, banklarning raqamli xizmatlari turlarini rivojlantirish yo‘nalishi kuzatilmoqda. Bank tizimiga elektron axborot texnologiyalarining kirib kelishi esa bu yo‘nalishdagi serxarajat ishlarni yangicha tashkil etish, takomillashtirishga sharoit yaratadi.

So‘nggi bir necha o‘n yilliklarda elektron pullar haqidagi g‘oyalar axborot texnologiyalari va kompyuter texnologiyalari evolyusiyasiga parallel ravishda sezilarli darajada o‘zgardi va takomillashtirildi, ularni rivojlanish ko‘lami va usullari doimiy ravishda kengaydi. Bu jarayonlar turli malakatlarda turlicha namoyon bo‘ldi va ular elektron pullarni talqin qilishning uchta asosiy yondashuvini aniqlashga imkon berdi:



1-rasm. Elektron pullarni talqin qilishning uchta asosiy yondashuvi

Ushbu yondashuvlar elektron pullarning iqtisodiyotdagi ahamiyati va uning rivojlanish bosqichlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Elektron pulning mohiyati va xususiyatlarini ochib berishda urinishlarning barcha boyligi va xilma-xilligi bilan elektron pul birligining narxlar ko‘lamini va qiymat mazmunini aniqlash muammosi e‘tibordan chetda qolmoqda. Narxlar shkalasi pul birligidagi qimmatbaho

metallning og‘irligi bilan belgilanadigan to‘liq pulga o‘xshab elektron pul birligining narx shkalasi uni ifodalovchi ma’lumotlarning hajmi va qiymati bilan belgilanishi kerak.

Shunday qilib, elektron pullar faqat ikkilamchi mavhum ma’lumotlar bilan ifodalanishi mumkin. Bunday ma’lumotlarning maqsadi ayirboshlangan tovarlarning qiymatini o‘lchash, ayirboshlash nisbatlarini o‘rnatish va uni amalga oshirishda vositachilik qilishdir.

Qimmatbaho metallardan yasalgan pullarni qog‘ozdan yasalgan pullar bilan almashtirish jarayoni, shuningdek qog‘oz pullarni elektron pullarga almashtirish jarayoni Gresham qonunining [1] amal qilishi bilan izohlanadi, u odatda quyidagicha ifodalanadi: “yomon pul yaxshilikni to‘playdi”, lekin aniqrog‘i: “arzon pul qimmatbaho pullarni siqib chiqaradi”. “Arzonroq pul har doim g‘alaba qozonishining sababi shundaki, u yoki bu puldan foydalanish tanlovi, asosan, uni oluvchiga emas, balki to‘lovchiga bog‘liq. Agar kimdir u yoki bu pul bilan qarzini to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lsa, tejamkorlik niyatlari uni eng arzonini tanlashga majbur qiladi. Agar tashabbus yoki tanlov to‘lovchiga emas, asosan pulni oluvchiga tegishli bo‘lsa, buning aksi bo‘lar edi. Shunda qimmatroq yoki “yaxshi” pul arzonroq yoki “yomon” pulni siqib chiqaradi” (Фишер, 2001).

Shunday qilib, keng ma’noda elektron pul kompyuter vositalarida aks ettirilgan universal ekvivalentning axborot timsolidir. Ular faqat ikkinchi darajali mavhum ma’lumotlar bilan ifodalanishi mumkin, bu esa atrofdagi dunyo haqidagi birlamchi o‘ziga xos ma’lumotlarni aks ettirish va kodlash natijasi bo‘lib, jamiyatda aloqa o‘rnatish uchun ishlatiladi.

Elektron pullar emissiyasining markazlashtirilmaganligini hisobga olgan holda, ularning to‘lov vositasi sifatida bir xilligi tranzaksiyalarni qayta ishlash uchun yagona axborot va identifikatsiya algoritmi talablariga javob berishi kerak.

Pulning xar turi qalbakilashtirishdan himoya qilishni talab qilganidek, elektron pullardan foydalanish ham ularni yaratish, saqlash va uzatish jarayonlarida axborot xavfsizligini yuqori darajada ta’minlashni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Фишер И. (2001) Покупательная сила денег. / Сост., вступ. статья М.К. Бункина, А.М. Семенов. – М.: Дело, 320 с. [1]